

## MUSTAQILLIK DAVRIDA JAMIYAT TARAQQIYOTINING PUBLISISTIK MATERIALLAR TILI VA USLUBIGA TA'SIRI

**Ziyatov Abduxoshim Abduvali o'g'li**

SamDCHTI O'zbek tili, jurnalistika va kompyuter lingvistikasi kafedrası o'qituvchisi  
E-mail: [ziyatovabduxoshim0@gmail.com](mailto:ziyatovabduxoshim0@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tilining funksional stilistikasi, o'tgan asr va mustaqillik yillarida ushbu tilshunoslik yo'nalishining taraqqiyoti, o'zbek olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maqolada publisistik uslub, mustaqillik davri, davlat va jamiyat taraqqiyotining mazkur uslub tilida aks etishi xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik, funksional stilistika, antroposentrik yondashuv, publisistik uslub, ommaviy axborot vositalari, televideniye, mediaolam, radio, internet.

Har qanday til taraqqiyotida yuz beradigan o'zgarishlar ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, lingvomadaniy yuksalishlar bilan bog'liq holda, eng avvalo, uning funksional-stilistik tizimida o'z aksini topadi. Shu ma'noda bu tadqiqotlarning o'zbek tilini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganishga, o'zbek tili stilistikasi fanining nazariy asoslari yaratilishiga davr nuqtai nazaridan muayyan hissa bo'lib qo'shilganligini e'tirof etgan holda ona tilimizning bugungi funksional-stilistik taraqqiyoti yangicha qarashlar va munosabatlarni, uni o'rganishga yangi tahlil metodlarni qo'llashni taqozo etmoqda. Bu ehtiyoj ayniqsa, publisistik uslub doirasida yaqqol sezilmoqda.

Bu o'rinda atoqli o'zbek tilshunosi prof.N.Mahmudovning quyidagi fikrini eslash jozidir: "Biz bugun fanga, ta'lim jarayoniga barkamol avlod tarbiyasiga chinakam ma'noda xizmat qiladigan, tilimiz taraqqiyotini va rivojini mustaqillik prizmasida talqin etishga qaratilgan tadqiqotlar kutayapmiz".<sup>36</sup>

Til taqdiri, uning rivoji bevosita uning iste'molchisi bo'lgan xalq taqdiri bilan bog'liq ekanligidan kelib chiqib prof.S.Karimov "O'zbek tilining funksional stilistikasi" asarida quyidagilarni yozgan edi: "Juda ko'p asrlardan buyon o'z xalqi va millatining aloqa vositasi bo'lib kelayotgan o'zbek tilining imkoniyatlari uning barcha ko'rinishlarida yana ham kengaydi, zamonlar silsilasida, badiiy ijod jarayonida sayqal topdi. U endi o'zbek xalqi uchun o'zaro aloqa qilish, muloqotda bo'lish va bir-birlariga xabar uzatish vositasigina emas, balki yuksak badiiy-estetik tuyg'ularni ham ifodalaydigan va xuddi shunday ta'sir ko'rsata va zavq bera oladigan nodir boylikka aylandi".<sup>37</sup>

Bu fikr o'zbek tili publisistik uslubi doirasida yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki, inson muloqot jarayonining, kognitiv tafakkurining g'oyatda xilma-xilligi, kengligi va murakkabligi bu jarayonda qo'llaniladigan til birliklarini shartli ravishda guruhlariga bo'lib o'rganishni taqozo etadi. Jumladan, omma orasida muayyan g'oyani, ijtimoiy fikrni targ'ib qilish, yoki bo'lmasin, biron-bir vazifani bajarishga tashviq etish, undash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarda qo'llaniladigan til birliklarining mavjudligi bu turkum birliklarni ham alohida uslubiy vositalar guruhi sifatida qarashga to'g'ri

<sup>36</sup> S.Каримовнинг "Ўзбек тилининг функционал стилистикаси" монографиясига ёзилган сўз бошидан олинди.

<sup>37</sup> Каримов С. Ўзбек тилининг функционал стилистикаси, – Б.4.

keladi. O'zbek tili funksional uslublari tizimidagi har bir alohida uslub ana shu talablar va antroposentrik yondashuvlar asosida o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mustaqil o'zbek davlatchiligining navbatdagi bosqichida – Uchinchi Renessans davrining poydevorini barpo etish, Yangi O'zbekistonning imijini yaratish jarayonida ona tilini yanada mukammal o'rganish, olamning lingvistik manzarasida o'ziga xos o'rni va maqvega ega ekanligini dalillash har qachongidan ham dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yildi. Bu tilning madaniyatini jahon xalqlari muloqot jarayoniga olib kirish har qachongidan ham ustuvor vazifa sifatida belgilab olindi. O'zbek tili bayrami munosabati bilan xalqimizga yo'llagan bayram tabrigida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Hayotimizda sun'iy intellekt ta'siri ortib borayotgan bir paytda bu qudratli vosita yordamida ona tilimizni rivojlantirish va targ'ib etish – davr talabidir», degan fikrni bildirdilar.<sup>38</sup>

Zamonaviy o'zbek tili mustaqillik sharoitida misli ko'rilmagan o'zgarishlarga yuz tutdi. Muloqot ko'lami nihoyatda kengaydi. Xalqaro miqyosdagi turli mavzular va darajalarda o'tayotgan anjumanlarda muloqot vositasi sifatida qo'llanayotganidan, uning dunyodagi nufuzi tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, yangi O'zbekiston sharoitida xalq bilan muloqotning tobora ahamiyatli bo'layotgani, buning ortidan OAVlari turlarining ham ko'payib borayotgani publisistik uslubni o'zbek tili funksional uslublar tizimida dominant, yetakchi uslubga aylantirdi. Chunki ona tilimiz taraqqiyotidagi asosiy o'zgarishlar va yangiliklar OAV doirasida ro'y bermoqda, uzatishdagi tezkorlik va qulaylik tufayli axborot adresatga juda tez yetib bormoqda va oson o'zlashtirilmogda. Jahon tilshunosligida uni ommaviy kommunikatsiyalar uslubi yoki ommaviy kommunikativ uslub deb atayotganlarining sababi ham shunda.

O'zbek tili funksional uslublar tizimidagi publisistik uslub ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotni OAV orqali aks ettirishning o'ziga xos shaklidir. OAVlari tur va janrlarining ko'pligi bu uslubning g'oyatda g'oyatda serqirraligi, til materialidan foydalanishdagi rang-barangligi, ayni paytda, o'ziga xosligini belgilaydi.

Publisistik uslub ijtimoiy faoliyatning ijtimoiy-siyosiy qatlami bilan bog'liq. Bu uslub ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan jurnal va gazeta maqolalari, miting va yig'ilishlardagi notiqlik chiqishlari uslubidir. Ularning vazifasi ikki xil – ishontirish va axborot uzatish. Alomatlari esa – uslubiy rang-baranglik, ekspressivlik va standartlilik uyg'unligi, ehtiros uyg'otish va da'vat qilishdir.

Mustaqillik davri publisistikasida **bayonning yangi usullaridan foydalanish** urfga kirdi. Maqola boshida matn mazmunining qisqacha sharhi va izohi bo'lgan, muallifning sub'yektiv fikrini mujassam qilgan rezyumelar beriladigan bo'ldi.

Darhaqiqat, publisistik uslubning alohida belgilaridan biri berilayotgan material mazmunidan kelib chiqib, turli uslublarga xos bo'lgan lingvistik vositalarning qo'llanishidir. Bu vositalarning tanlanishida publisistik janrlarning ahamiyati ham bor, albatta. Matnning axborot, tahliliy, yoki bo'lmasin, badiiy-publisistik xarakteri til birliklarning tanlanishida asosiy dastak bo'lib turadi. Ifoda samaradorligiga xizmat qiladigan bu tanlanish axbortning aniq bo'lishi, muammoni chuqur tahlil qilish, adresatga estetik ta'sir o'tkazish singari talablar bilan bog'liq bo'ladi.

Publisistik uslub **o'zbek tilida mavjud bo'lgan barcha vositalardan foydalanish imkoniyatiga** ega. Shu bilan birga, bu foydalanishda o'ziga xosliklar

<sup>38</sup> <https://www.gazeta.uz/uz/2025/10/21/tabrik/>

mavjud. Birinchidan, adresant va adresat o'rtasidagi muloqotda ifodaning har ikkala – ham og'zaki, ham yozma usullari amalda bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, bu jarayonda, shubhasiz, barcha funksional uslublarda bo'lgani kabi ham lingvistik, ham ekstralingvistik vositalar ishtirok etadi.

Publisistikaning zamonaviy pragmatik vositalarini qo'llash bilan birga faqatgina shu uslubga xoslangan standart, turg'un birikmalar – formulalarga murojaat qilish ham davom etmoqda.

Shu paytga qadar gazeta va jurnallar, radio va televideniye eng ommalashgan axborot vositalari sifatida qarab kelingan bo'lsa, XXI ga kelib mediaolamda **internet** tizimining axborot uzatish imkoniyati kengaydi. Shunga bog'liq tarzda til materialidan foydalanishga bo'lgan talablar ham o'zgardi.

XXI asrda insonlar hayotiga **internet** vositalarining kirib kelishi axborot texnologiyalarida inqilob yasadi. Axborot tizimida *mediaolam* degan tushuncha paydo bo'ldi. Axborot uzatishning matbuot, radio, televideniye singari ko'rinishlari qatorida kommunikatsiyaning elektron vositalari paydo bo'ldi. Ularning har birning tili va kommunikatsiya uslubi bir-biridan, garchi jiddiy bo'lmasa-da, farqlanadigan bo'ldi.

Radioeshittirishlarda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida g'oyibona aloqa mavjud. Bunda adresant faol va adresat passiv pozitsiyada bo'ladi. Hozirgi davrda radioeshittirishlar axborot, musiqiy va reklama yo'nalishlarida olib borilmoqda.

**Televideniye** hayotga o'tgan asrning 50-yillarida kirib kelgan va axborotni nafaqat eshitish, balki ko'z bilan qabul qilish imkoniyati paydo bo'lgan. Ayni paytda, teleeshittirishlar mualliflarida turli verbal va noverbal metodlardan foydalanish imkoniyati yuzaga kelgan. Shu paytga qadar teleko'rsatuvlarda axborot, telesharh, teleintervyu, tahlilnoma, telebahr va adabiy-badiiy singari janrlar yetakchilik qilgan bo'lsa, endi teleshoular, musiqiy kliplar, reklamalar, voqea joyining o'zidan to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatuvlar olib borish odat tusiga kirmoqda.

O'zbek jurnalistikasining alohida sohasi – telejurnalistika shakllandi. Teleko'rsatuvlarning sifati va soni ortib boravergani sari soha xodimlarining kasb mahorati ortdi, imidji zamonaviylashdi, ko'rsatuvlar uslubi ham takomillashdi. Oqibatda telekommunikatsiya jarayonidagi vizual-psixologik aloqa ham tabiiy asosga qo'yildi. Prof. S.Karimov fikricha, "Teleradioeshittirishlar oldida turgan asosiy vazifa - xalqni jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy voqealardan xabardor qilib turish, uning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini yuksaltirish ekanligi, ayni paytda, bu eshittirishlar nutqi o'zbek nutqi madaniyatining namunasi bo'lishi lozimligini ham anglatadi".<sup>39</sup>

Matbuot tizimida **gazeta** ommaviyligi bilan yetakchilik qiladi. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalaridagi yangiliklar dastlab gazeta sahifalarida o'z aksini topadi. Til birliklari ham asosan gazeta orqali ommalashadi, turg'unlik kasb etadi va lug'atlardan joy oladi. Materialni tayyorlash jarayonidagi til ustida bemalol ishlash – tanlash, tahrir qilish bunga sabab bo'ladi. Shu boisdan bo'lsa kerak, A.Abdusaidov gazetani o'zbek tilida alohida uslub sifatida qaragan.<sup>40</sup>

Gazeta matnida beriladigan bosh maqola, xalqaro obzor, xabar va yangiliklar, sport musobaqalari sharhi, shuningdek tahliliy va badiiy-publisistik materiallar alohida ekstralingvistik shart-sharoitlar tufayli shakllanadi.

<sup>39</sup> Каримов С. Ўзбек тилининг функционал стилистикаси. – Самарканд: СамДУ нашри, 2010, – Б.67.

<sup>40</sup> Абдусaidов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари: Филол.фан.д-ри... дис.автореф. – Тошкент, 2005. – 486.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Курбанов Т.И. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис. ...канд филол.наук. – Ташкент, 1987.
2. Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол.фан.д-ри ...дис. автореф. – Тошкент, 1994.
3. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд, 1992.
4. Абдусайдов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари: Филол.фан.д-ри... дис.автореф. – Тошкент, 2005.